


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lif  
yo'nalishining malaka talablari**

**Toshkent-2023**



## **ISHLAB CHIQILGAN:**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil “7” 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralarini (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtimachilarini takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

| T/r    |  | bet |
|--------|--|-----|
| 1.     | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشining umumiy tavsifi .....   | 4   |
| 1.1.   | Qo'llanish sohasi .....  | 4   |
| 1.1.1. | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'naliشi Malaka talabining qo'llanilishi.....   | 4   |
| 1.1.2  | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....   | 4   |
| 1.2.   | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....                    | 4   |
| 1.2.1. | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....                       | 4   |
| 1.2.2. | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....                  | 4   |
| 1.2.3. | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....                     | 5   |
| 1.2.4. | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrularning kasbiy vazifalari.....                               | 5   |
| 2.     | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'naliشi bo'yicha bakalavrularning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar..... | 7   |
| 2.1.   | Umumiy kompetensiyalar.....  | 7   |
| 2.2.   | Kasbiy kompetensiyalar.....  | 8   |
| 2.3    | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....   | 9   |
| 2.4    | Kvalifikatsiya.....  | 10  |
| 3.     | 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشi o'quv rejasining tuzilishi.....                                    | 11  |
|        | Bibliografik ma'lumotlar.....  | 12  |
|        | Kelishuv varag'i.....  | 13  |

## **1. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi**

**60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsisi.**

##### **1.2.1. Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)**– fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, sog‘liqni saqlash sohasi tizimlarini, moliya va iqtisodiyot sohasi tizimlarini, ta’lim sohasi tizimlarini, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasi tizimlarini hamda ijtimoiy ta’minot sohasi, konsalting xizmat ko‘rsatish, moslashuv markazlari, ijtimoiy ta’minot, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ta’limining davlat va nodavlat muassasalarida yo‘nalishga doir masalalarni yechish majmuini qamrab oladi.

**1.2.2. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bakalavrlarining kasbiy faoliyati obyektlari:**

- sog‘liqni saqlash tizimlari, nogironligi bor shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazlari, keksalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalar;
- o‘zini o‘zi boshqarish organlari, oilalar va bolalar manfaatlarini himoyalovchi tashkilotlar;
- mehnat va aholi bandligini ta`minlash markazlari, ijtimoiy ta`minot va pensiya ta`minoti tizimlari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari tizimlari;
- ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va hayriya jamg‘armalar, oila va bolalarni ijtimoiy muhofazalash, voyaga yetmaganlar bilan ishlash tizimlari;
- psixokorreksion yordam ko‘rsatish markazlari, oilalar va bolalar muammolarini ilmiy-tadqiq etish institatlari;
- maktabgacha ta’lim muassasalari, o‘rta ta’lim maktablari;
- Yoshlar ishlari agentligi va bo‘limlari;
- gerontologiya institatlari, bo‘sh vaqt o‘tkazish va inqiroz markazlari hisoblanadi.
- ijtimoiy ish yo‘nalishdagi tashkilot, nodavlat tashkilotlari va davlat boshqaruvi idoralarida kompleks masalalarni yechish jarayonlari.

**1.2.3. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot faoliyat;*
- *ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyat;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

**1.2.4. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari:**

60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:**

- kasbiy faoliyatda ijtimoiy ish sohasida ish yuritish tizimlarida zamonaviy metodlarini qo‘llash;
- istiqbolliy ilmiy-tadqiqot muammolarini ajrata olish;
- tadqiqotning nazariy-metodologik bazasini ishlab chiqish;
- tadqiqotning reja va dasturini tuzish;
- ma‘lumotlarni interpretatsiya, tahlil qilish, qayta ishlash va jamlash metodlarini qo‘llash hamda olinayotgan empirik ma‘lumotlar haqida tasavvur qilish;
- internet va kutubxona-ma‘lumotlaridan foydalangan holda ilmiy va amaliy ma‘lumotlar qidiruvini amalga oshirish;
- internet tarmog‘ida yangi ilmiy, ijtimoiy soha yutuqlari haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim*.

### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda:**

- insoniylik, mehr-muruvvat va hayriya masalalarida aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'tkazish;
- keksalar va nogironlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi masalasida tushuntirish ishlarini olib borish;
- Yoshlar ishlari agentligi va bo'limlarida, mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha individual suhbat o'tkazish;
- O'zbekiston va jahon tarixiga oid manbalardan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohada foydalanishni tashkillashtirish;
- umuminsoniy qadriyatlar – insoniylik, ijtimoiy adolat, shaxs sha'ni va g'ururini xurmat qilish, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ijtimoiy ishning professional-etik asos sifatida ochib berish **qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

- ijtimoiy xizmat va ijtimoiy himoya dasturlarini mustaqil rejalashtirish;
- ijtimoiy xizmat va ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishda kerakli resurslarni qidirish;
- ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi hodim, mutaxassis va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tashkillashtirish;
- ijtimoiy ish xizmatini tashkillashtirish;
- ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi hodim, mutaxassis va tashkilotlar faoliyatini nazorat, monitoring va baholashni amalga oshirish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- ijtimoiy ishning boshqaruv tizimida axborot texnologiyalarni qo'llash;
- ijtimoiy sohaga effektiv halqaro tajribani joriy qilish;
- oilalar va bolalarning atrof-muhitini, mehnat xavfsizligini va hayot faoliyatini himoya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkillashtirish;
- o'zini o'zi boshqarish organlarida keksalar bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlash;
- keksalarning turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida ko'ngillilar (volontyorlik) faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda faol ishtirok etish;
- Respublika va hududlar kesimida nogironlikni o'ziga xos kechishi, rivojlanishi va kelgusidagi holati, natijalari va muammolari, ularni oldini olish yoki mavjud ko'nikmalarni bartaraf etishga doir taklif, tavsiyalarini berish;
- nogironligi bor shaxslar hayotiga oid aniq nazariy-ilmiy xulosalarga asoslanib, jamiyat taraqqiyotining kelajagi, jumladan nogironlarni jamiyatga uyg'unlashuvi, teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlanishi, diskriminatsiyaga chek qo'yilishini kelgusida to'liq amalga oshirilishi haqida va uni rejali ravishda rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish;
- nogironligi bor shaxslarga tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam o'rganish va ijrosini ta'minlash borasida faoliyat yuritish;
- o'z mutaxassisligi bo'yicha rejali ravishda malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish **qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

### **Axborot-tahliliy faoliyatda:**

- ijtimoiy himoya milliy agentligida malakaviy amaliyotni amalga oshirish;
- oilalar, yoshlar va bolalar hayotiy vaziyatlarini baholash;
- ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning individual dasturlarini ishlab chiqish;
- oilalar, yoshlar va bolalarga ijtimoiy maslahat va ijtimoiy ko'mak ko'rsatish;
- oilalar, yoshlar va bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi va ijtimoiy himoyani tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish;
- ijtimoiy himoya milliy agentligida ijtimoiy muammolarini tadqiq etish va ularni sotsiologik tahlil qilish;
- ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmat masalalari bo'yicha maslahatlar berish, ijtimoiy himoya milliy agentligiga yo'naltirish;
- majburiyat yuklatilgan nazoratni amalga oshiruvchi qaramog' o'rnatilgan oilalar va bolalarga sog'lig'i tufayli yordam ko'rsatish;
- faoliyatning professional ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini zamonaviy yetakchi ilm va texnika asosida yechish;
- mehnat faoliyati xavfsizligini ta'minlash, inson salomatligi va ishga layoqadlilarni qo'llab quvvatlash metodlaridan foydalanish;
- keksalarning turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida ko'ngillilar (volontiyorlik) faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- boquvchisini yo'qotgan, yolg'iz keksalar uylariga borilganda ularning doridarmonidan xabar olish, uylarini tozalash va boshqa maishiy xizmat ko'rsatishda mutaxassis, xodimlarni jalb etishda ishtirok etish;
- nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy va tibbiy masala larga doir hayotini barcha jarayonlariga taaluqli borliqni, muammolarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;
- ijtimoiy sohaga rivojlangan mamlakatlarda qo'lga kiritilgan yutuqlarni bosqichma-bosqich qo'llash ***qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.***

## **2. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- fan tushunchasining mazmuni va mohiyatini anglashi va tahlil qilishi;
- ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotning istiqbollarini ko'ra olish;
- ijtimoiy ta'minot haqida bilishi;
- ijtimoiy ish muammolari: genetika va irsiyat, madaniy farqlar, atrofidagi muhit, ijtimoiylashuv jarayonlarini tahlil qila olishi;
- asosiy tushunchalar, maqsadi, ijtimoiy ish tamoyillari, professional kasbiy ta'lim mazmunini bilishi;
- ijtimoiy muammolarni yechish va ogohlantirishga qaratilgan ijtimoiy ishni ijtimoiy hayot fenomeni sifatida tushunish, ijtimoiy ish yo'nalishlari, darajalari va shakllarini bilishi;
- ijtimoiy ish xodimlari mijozlari bilan o'zaro munosabatga kirish, ijtimoiy ish etikasini bilishi;
- ijtimoiy ishning zamonaviy konsepsiyalari va modellarini bilishi va foydalana olish, stigmatizatsiyani oldini olish va ijtimoiy fikrni shakllantira olishi;
- ijtimoiy ishni nazariya va amaliyot sifatida paydo bo'lish tendensiyasi va asosiy davrlarini bilishi;
- ijtimoiy ishning asosiy tarixiy konsepsiyalari, tarixiy sanalar, faktlar va voqealarni bilishi:
  - sasework – psixodinamik nazariyaning asosiy andozasini qo'lash, ijtimoiy ishning majmuaviy yo'naltirilgan modellar xususiyatlarini bilishi
  - funksional, radikal-tuzilmaviy, radikal-gumanitar va interpretativ sotsiologik paradigmalar yo'nalishidagi ijtimoiy ish konsepsialarida foydalana olishi;
  - O'zbekistonda va chet mamlakatlarda ijtimoiy ishning asosiy rivojlanish tendensiyalari, ijtimoiy ishning darajalari: shaxsiy, guruhiy, jamoaviy, ijtimoiy ishning nazariy paradigmalarni bilishi;
- RBIMM bo'limlari faoliyatlarini bilishi, bolalar muammolarini bilishi va yechimlarni taklif qila olishi, ijtimoiy ishning turli xil metodlari, nazariy tamoyillari, ob'ekti, predmeti va kategoriyalari, uning majmuaviy-integrativ tavfsifini bilishi;
- ijtimoiy siyosatning ob'ekti va sub'ektini, O'zbekistonda zamonaviy ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari, shahar va qishloq muammolarini hal etishda ijtimoiy siyosiy jarayonlarni bilishi va amalda qo'llay olishii;
- aholini ijtimoiy himoya qilish organlari jamiyatni turli ijtimoiy guruhlarini qo'llab quvvatlashini bilish, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy davlat dasturlarini, ijtimoiy ish va ijtimoiy siyosatining o'zaro aloqadorligini aniqlay olishi va foydalanishi;
- inson hayot faoliyatining turli tomonlari, aholining turli guruxlari bilan ishslashning maxsus metodlarini qo'llashi;
- doimiy ichimlik suviga ega bo'lmaslik, to'yib ovqatlanmaslik, yashash joyi sharoitlarining yomonligi, yashash joyida zaruriy shart-sharoitlar yaratilmaganligi bilan bog'liq insonlar bilan ishslash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni bilishi;
- ijtimoiy ishda huquqiy me'riy xujjalardan foydalanishni bilish va qo'llay olishi;
- yordamga muhtoj fuqarolar qiziqishlarini himoya qilish tashkilotlarining asosiy huquqiy faoliyati haqida bilishi;
- mehnat huquqini amalga oshirish kafolatlari, bandlik markazlari organlari faoliyatida qo'llashi;

- nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining xususiyatlarini, maxsus fanlarni o'qitish maqsadini belgilashni, mashg'ulot maqsadi va vazifalari asosida ta'limg' usullarini tanlash, ta'limg' jarayoni natijalarini baholashi;
- oilalar va bolalar ijtimoiy manfaatlarini muhofazalovchi davlat va nodavlat tashkilotlari, xayriya jamg'armalarida professional mutaxassis sifatida ishla bilishi;
- ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalar institutsional muassasalarida ijtimoiy ish xodimi sifatida faoliyat yurita olishi;
- oilalar va bolalar ijtimoiy muammolarini ilmiy-tadqiq etish institutlarida ilmiy faoliyat yuritishni bilishi;
- oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishda dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qila olishi;
- deviant hulqli, penitensiya muassasalarda bolalar qayta ijtimoiylashuvi va moslashuvini tashkil etishda ko'maklashishi;
- alohida ehtiyojli bolalarga sotsioterapevtik, psixokorreksion, tibbiy-reabilitatsion ko'maklashish markazlarida faoliyat yurita olishi;
- urush va mehnat faxriyalarini pansionatlarida ularni muammolarini bilishi va yechim topa olishi;
- o'zini o'zi boshqarish organlarida keksalar bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyat turlari bo'yicha bilimlarni egallagan bo'lishi;
- keksalarning turmush darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida ko'ngillilar (volonterlik) faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda faol ishtirok eta olishi;
- bemor-nogironlarni ijtimoiy tekshirishlardan (intervyu, so'rov va sotsial eksperimentlar va h.k.z.) o'tkaza olishi;
- nogironlar bilan zarur bo'lgan ijtimoiy munosabat va muloqotni o'rnatma olishi, ularni kasbiy malakalarini oshirishdagi o'qish yoki mehnatning biron-bir turi bilan shug'ullanishiga ularni yo'naltirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallahashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'limg' yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'limg' yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'limg' yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

**2.3.1. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

| O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat | Ajratilgan kredit |
|--|--|-------------------|
| Majburiy fanlar  | 4860   | 162               |
| Tanlov fanlar  | 1200   | 40                |
| Malakaviy amaliyot                                     | 690  | 23                |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi                          | 450  | 15                |

**2.4. Kvalifikatsiya:** ijtimoiy xodim, tadqiqotchi.

**3. 60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo’nalishi o’quv rejasining tuzilishi**

| T.r.        | Fanning malakaviy kodi | O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari            | Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o’tiladiga n semestr |
|-------------|------------------------|---|--------------------------------------|----------------|--------------------------|
| <b>1.00</b> |                        | <b>Majburiy fanlar</b>  | <b>4860</b>                          | <b>162</b>     |                          |
| 1.01        | UYTB104                | O‘zbekistonning eng yangi tarixi                                  | 120                                  | 4              | 1                        |
| 1.02        | RATB104                | Raqamli axborot texnologiyalari                                   | 120                                  | 4              | 2                        |
| 1.03        | FAIB104                | Falsafa   | 120                                  | 4              | 2                        |
| 1.04        | URTB104                | O‘zbek (rus) tili   | 120                                  | 4              | 2                        |
| 1.05        | XJTB104                | Xorijiy til   | 120                                  | 4              | 1                        |
| 1.06        | DINB204                | Dinshunoslik  | 120                                  | 4              | 4                        |
| 1.07        | IPPB306                | Ijtimoiy pedagogika.  | 180                                  | 6              | 5                        |
| 1.08        | UPPB304                | Umumiy psixologiya  | 120                                  | 4              | 6                        |
| 1.09        | IIBK106                | Ijtimoiy ishga kirish   | 180                                  | 6              | 1                        |
| 1.10        | IITB106                | Ijtimoiy ish tarixi   | 180                                  | 6              | 1                        |
| 1.11        | OBIB112                | Oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish                             | 360                                  | 12             | 1,2                      |
| 1.12        | IBHB110                | Ijtimoiy ishda bolalar huquqlarini himoya qilish                  | 300                                  | 10             | 1,2                      |
| 1.13        | IEPB106                | Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatları                 | 180                                  | 6              | 2                        |
| 1.14        | ISYB206                | Ijtimoiy siyosat  | 180                                  | 6              | 3                        |
| 1.15        | NBSB210                | Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish                       | 180                                  | 6              | 2,3                      |
| 1.16        | IINB212                | Ijtimoiy ish nazariyasi   | 360                                  | 12             | 3,4                      |
| 1.17        | IIMB210                | Ijtimoiy ish menejmenti   | 300                                  | 10             | 3,4                      |
| 1.18        | GKSB210                | Gumanitar krizislar sharoitida ijtimoiy ish                       | 300                                  | 10             | 3,4                      |
| 1.19        | ITMB310                | Ijtimoiy ishda tadqiqot metodlari                                 | 300                                  | 10             | 5                        |
| 1.20        | ATGB306                | Aholini turli guruhlari bilan ijtimoiy ish                        | 180                                  | 6              | 5                        |
| 1.21        | BYIB306                | Bolalar, yoshlarning ijtimoiy himoyasi va ta’minati               | 180                                  | 6              | 6                        |
| 1.22        | OQBB310                | Ota-onas qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti | 300                                  | 10             | 6,7                      |
| 1.23        | ZASB406                | Zo‘ravonlikdan aziyat chekkan shaxslar bilan ijtimoiy ish         | 180                                  | 6              | 7                        |
| 1.24        | KIIB406                | Keksalalar bilan ijtimoiy ish                                     | 180                                  | 6              | 7                        |
| <b>2.00</b> |                        | <b>Tanlov fanlar</b>  | <b>1200</b>                          | <b>40</b>      |                          |
| 2.00        |                        | Tanlov fanlar   | 1200                                 | 40             | 4,5,6,7                  |
|             |                        | <b>Jami</b>   | <b>6060</b>                          | <b>202</b>     |                          |
|             |                        | <b>Malakaviy amaliyot</b>   | <b>690</b>                           | <b>23</b>      | <b>4,6,8</b>             |
|             |                        | <b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>                              | <b>450</b>                           | <b>15</b>      | <b>8</b>                 |
|             |                        | <b>Jami</b>   | <b>1080</b>                          | <b>36</b>      |                          |
|             |                        | <b>HAMMASI</b>  | <b>7200</b>                          | <b>240</b>     |                          |



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7.

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Modul, kredit, ijtimoiy ish, ijtimoiy ish xodimi, ijtimoiy ish tarixi, ijtimoiy ish nazariyasi, ijtimoiy ish etikasi, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy ish yo'nalishi, ijtimoiy ishchining funksiyasi va roli, ijtimoiy ish metodlari, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy diagnostika, ijtimoiy infrastruktura, ijtimoiy terapiya, ijtimoiy gerontologiya, shaxslaro konflikt, oilaviy konflik, ijtimoiy moslashuv, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy ishning huquqiy asoslari, huquqiy kafolat, ijtimoiy ish menejmenti, ijtimoiy siyosat muammolari, ijtimoiy boshqaruv, nogironligi bor bolalarni kuzatib qo'yish, vasiylik va homiylik, mahalla funksiyalari, inklyuziv ta'lim, aholi bandligi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy sug'urta, urush va mehnat fahriylari pansionati, Muruvvat uyi, Saxovat uyi, ijtimoiy institutlar, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, pensiya ta'minoti, oila va gender, ijtimoiy nafaqa, pensiya jamg'armasi, ijtimoiy ta'minot.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda  
kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN**

O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I.U. Madjidov



2023 yil " \_\_\_\_ "

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi**


direktor o'rinnbosari  S.S. Abdullayev

2023 yil " \_\_\_\_ "

Farg'onha davlat universiteti

Namangan davlat universiteti



Rektor  B.Shermuhamedov



Rektor  S.Turg'unov

2023 yil " \_\_\_\_ "

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'lifini rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq  
etish markazi**

Direktor \_\_\_\_\_ Sh.Yakubov

2023 yil " \_\_\_\_ "  
M.O.

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**  
**60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) malaka talabalari va o‘quv**  
**rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar**  
**iste’molchilar o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

**Toshkent shahri**

“ ” 2023 yil

Biz quyida imzo qo‘yuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori o‘rinbosari S.S.Abdullayev, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi direktori V.S.Alimova, Namangan davlat universiteti rektor S.Turg‘unov, Farg‘ona davlat universiteti rektori B.Shermuhamedov, O‘zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Majidov bilan birgalikda O‘zMUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari va o‘quv rejasi bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-sen farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-sen, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sen, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovliislohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sen, 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sen, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019/2020 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-sen Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjalr, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilar tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjalarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘matilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori o‘rinbosari**

**Farg‘ona davlat universiteti rektori**

**Namangan davlat universiteti rektori**

**O‘zbekiston Milliy universiteti rektori**

  
S.S.Abdullayev

  
B.Shermuhamedov

  
S.Turg‘unov

  
I.Madjidov

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan  
60920100 – Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim  
yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrular tayyorlashning tayyorgarlik darajasi  
va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va  
o‘quv rejasiga**

## TAQRIZ

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishining malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-tonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-tonli qarori hamda O‘zR OO‘MTV ning O‘zR OO‘MTV ning 2018 yil 6 iyundagi “Oliy ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi №87-02-1322-tonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

Bugungi kunda demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ijtimoiy sohani isloh qilish va aholini turmush tarzini yanada takomillashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy qonunlarni bilish va ulardan foydalanishga ongli munosabatda bo‘lish, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur hisoblanadi. Ijtimoiy muammolarni hal etishning jahon tajribasini o‘rganish, bo‘lajak mutaxassislar uchun O‘zbekistonda ijtimoiy ishning kasb sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o‘xshash hodisa va jarayonlar bashorat qilish nuqtai nazarida qiziqish uyg‘otadi. Chet el tajribasini o‘zlashtirish jarayoni, avvalo ijtimoiy muammolarni hal etishda O‘zbekistonning tarixiy xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z yondoshuvlarini ishlab chiqishi uchun zarurdir.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, MTning va o‘quv rejasining asosiy maqsadi talabalarni kelgusida 60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) sohasi mutaxassis bo‘lishi uchun asos hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy ish xodimlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora kengayib bormoqda. Mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj ularning tayyorlash jarayoni zaruriy choratadbirlar, ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, zarur me’yoriy hujjatlarning davrga mos hamda mutaxassislar tayyorlash jarayonining amaliy ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Milliy universitetida tayyorlangan 60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablarining mazkur loyihasi amalda qo‘llanilgan shakllaridan farq qilishi bilan ajralib turibdi. Mazkur bakalavrular tayyorlash MTlarning tuzilishi va uning mazmunini belgilovchi bandlarning har birida ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning zaruriy mazmuni va uning amaliy jihatlari o‘z aksini topgan.

60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablarini tuzilishi va mazmuni malaka talablarini ishlab chiqish asoslari, qo‘llanish sohasi, atamalar, ta’riflar, ta’lim yo‘nalishining tavsifi, bakalavrning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar. malaka talablarining amal qilish muddati bandlari asosida yoritib berilgan.

60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشining MTning har bir bandi bakalavrлarni tayyorlash jarayoni va uning kelajakda kasbiy faoliyatni olib borishini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyat sohalari, faoliyat ob'ektlari, ta'lim jarayoni bilan mutaxassis sifatida faoliyat olib borish uchun zarur bilim, ko'nikma va malaka talablarining aniq mezonlarini keltirilganligi bilan izohlanadi.

60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشi o'quv rejasidagi o'quv fanlari ilmiy faoliyat turlari hamda ularning vaqt me'yorlari aniq va izchillikda joylashtirilgan. O'quv rejadagi o'quv fanlari va ilmiy faoliyat turlari MTning mazmunida aks etgan.

Shuningdek, mazkur MT loyihasida bakalavrming malaka amaliyotiga bo'lgan talablarni aniq belgilanganligi kadrlar buyurtmachilarining mutaxassis faoliyatini baholash imkonini beradi.

60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشining malaka talablarini va o'quv rejasini bakalavrлar tayyorlash jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشining malaka talablari va o'quv rejasi belgilangan tartibda tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

Namangan davlat pedagogika instituti  
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, PhD



M. Asranbayeva

M.X. Asranbayeva

M. Asranbayeva ning  
IMZOSINI TASDIQLAYMAN  
NamDPI Xodimlar bo'llimi boshlig'i.  
M. Asranbayeva

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA  
ISHLAB CHIQILGAN 60920100 – IJTIMOIY ISH (FAOLIYATNING TURLI  
SOHALARI BO'YICHA) TA'LIM YO'NALISHI MALAKA TALABLARI VA  
O'QUV REJASIGA**

**TAQRIZ**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan 60920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) ta'lif yo'nalishi malaka talablari talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldag'i "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli; O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "2019–2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-son Qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan. XXI-asrda demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ijtimoiy sohani isloh qilish va aholini turmush tarzini yanada takomillashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy qonunlarni bilish va ulardan foydalanishga ongli munosabatda bo'lish. mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur hisoblanadi. Ijtimoiy muammolarni hal etishning jahon tajribasini o'rganish, bo'lajak mutaxassislar uchun O'zbekistonda ijtimoiy ishning kasb sifatida shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o'xshash hodisa va jarayonlar bashorat qilish nuqtai nazarida qiziqish uyg'otadi. Chet el tajribasini o'zlashtirish jarayoni, avvalo ijtimoiy muammolarni hal etishda O'zbekistonning tarixiy xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z yondoshuvlarini ishlab chiqishi uchun zarurdir.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, MTning va o'quv rejasingning asosiy maqsadi talabalarni kelgusida Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) sohasi mutaxassisini bo'lishi uchun asos hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy ish xodimlariga bo'lgan ehtiyoj tobora kengayib bormoqda. Mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ularning tayyorlash jarayoni zaruriy choratadbirlar, ta'lif jarayonini to'g'ri tashkil etish, zarur me'yoriy hujjatlarning davrga mos hamda mutaxassislar tayyorlash jarayonining amaliy ahamiyatiga nisbatani ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Milliy universitetida tayyorlangan 660920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lif yo'nalishi malaka talablarining mazkur loyihasi amalda qo'llanilgan shakllaridan farq qilishi bilan ajralib turibdi. Mazkur bakalavrlar tayyorlash MTlarning tuzilishi va uning mazmunini belgilovchi bandlarning har birida ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning zaruriy mazmuni va uning amaliy jihatlari o'z aksini topgan.

660920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشining malaka talablarini tuzilishi va mazmuni malaka talablarini ishlab chiqish asoslari, qo'llanish sohasi, atamalar, ta'riflar, ta'lim yo'naliشining tavsifi, bakalavrning tayyogarlik darajasiga qo'yiladigan talablar, malaka talablarining amal qilish muddati bandlari asosida yoritib berilgan.

660920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشining MTning har bir bandi bakalavrлarni tayyorlash jarayoni va uning keljakda kasbiy faoliyatni olib borishini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyat sohalari, faoliyat ob'ektlari, tayyorlash jarayoning vaqt me'yordi, ta'lim jarayoni bilan mutaxassis sifatida faoliyat olib borish uchun zarur bilim, ko'nikma va malaka talablarining aniq mezonlarini keltirilganligi bilan izohlanadi.

660920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliши o'quv rejasidagi o'quv fanlari ilmiy faoliyat turlari hamda ularning vaqt me'yordi aniq va izchillikda joylashtirilgan. O'quv rejadagi o'quv fanlari va ilmiy faoliyat turlari MTning mazmunida aks etgan.

Shuningdek, mazkur MT loyihasida bakalavrning malaka amaliyotiga bo'lган talablarni aniq belgilanganligi kadrlar buyurtmachilarining mutaxassis faoliyatini baholash imkonini beradi.

660920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliشining malaka talablarini va o'quv rejasini bakalavrлar tayyorlash jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

660920100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliшиining malaka talablarini va o'quv rejasini belgilangan tartibda tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

**O'zMU sotsiologiya kafedrasi mudiri  
dotsenti, sotsiologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)**



E.Zaitov